



**JAMOA IJROCHILIGIDA URMA VA ZARBLI  
CHOLG'ULARINING AHAMIYATI**

**Egamkulov Oybek Altmishevich**

JDPU Sirtqi bo'lim, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo'nalishlarida  
masofaviy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

oybektama@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7932663>

**ARTICLE INFO**

Received: 01<sup>st</sup> May 2023

Accepted: 11<sup>th</sup> May 2023

Online: 12<sup>th</sup> May 2023

**KEY WORDS**

*Musiqa, ansambl, orkestr, urma  
va zarbli cholg'u, percussiya,  
timpani, cholg'ushunoslik.*

**ABSTRACT**

*Maqolaning mazmunida cholg'u musiqa olamida yuqori  
o'rin egallagan orkestr va ansambl jamoalarida urma  
va zarbli cholg'ularining imkoniyatlari, ularning  
nomlanishi va turlari, bir-biridan qanday faqlanishi va  
ovoz ohangi xususida so'z boradi.*

Xozirgi yashab turgan zamonamizdan o'n ming yillar oldin, insoniyat qo'liga tosh yoki boshqa jismni olib ularni bir-biriga urib tovush chiqarib ritmik figuralar xosil qilgan. Shu asnoda, birinchi zarbli cholg'u asbobi paydo bo'lgan. Xali musiqani tushunmagan, biroq usulni berishi mumkin bo'lgan bu ibtidoiy qurilma hozirgi kunda ham ba'zi bir xalqlarning shaxsiy hayotida saqlanib qolgan: Misol uchun: Avstraliyaning tub aholisi orasida hozirgi kunda ikkita oddiy toshli jism zarbli asbob rolini bajaradi. Ushbu urma va zarbli cholg'u asboblari boshqalardan anchagina eski holatda. Tadqiqotchilarning deyarli barchasi eng birinchi zarbli cholg'ularpaydo bo'lganiga, undan so'ng ohanglar rivoj topgan degan fikrni ilgari surishadi. Mazkur cholg'ular nomlari tovush chiqarish va ko'rinishi, tuzilishiga qarab nomlangan. (Misol: metall yoki teriga plitalarga, yog'och qismiga, tan ava boshqa qismlariga zarba berish). Birinchisi ko'rinish, aniq balandlikka ega ya'ni sozlash mumkin bo'lgan shunday qobiliyatiga ega zarbli cholg'u asboblarni o'z ichiga oladi. Bunday cholg'ularga Litavralar, qo'ng'iroqlar, vibrafon, ksilofon, marimba va boshqalar kiradi. Ularning ovoz ohangni boshqa cholg'ularning ovozlari bilan teng huquqqa ega deb hisoblasak bo'ladi. Shu bilan bir qatorda ansambl, orkestr, va boshqa jamoaviy ijrolarda o'zining alohida ohangiga ega. Misol uchun: baraban tovushi shu darajada tartibsiz chastotalarga ega va biz uni fortepiano yoki boshqa aniq balandlikka ega biron bir cholg'u tovushi bilan bog'lay olmaymiz. Bundan aniq bo'ladiki baraban cholg'usini qaysi notaga o'rnatilganligini aniqlay olmaymiz. Xuddi shu narsani nog'ora daf, kastanet va shu kabi bir qncha cholg'ular haqida ham aytishimiz mumkin. Lekin ushbu vositalar musiqa olamida juda kerak. Ular orasida ba'zilar usul uchun, boshqalari esa turli qo'shimcha effektlar uchun ishlatiladi. Bularning hammasi albatta ma'lum bir balandlikka ega bo'lmagan ya'ni ikkinchi guruh zarbli cholg'u sozlaridir. Bular orasida timpani (litavra) va baraban to'plami cholg'u asboblari bir-biriga juda yaqin o'xshashdir, biroq bular turli guruhlariga ajratiladi.



Baraban to'plami cholg'usi zarbli cholg'ular orasida eng keng tarqalgan asboblardan hisoblanadi. Baraban cholg'usining ikkita turi – katta baraban va kichik baraban uzoq davrlardan beri estrada, simfonik va boshqa orkestrlarning ajralmas bir qismi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Kichik barabanning tovushi aniq bir tonallikka ega emas va shuning uchun ham aytish mumkinki ko'rsatilgan ritm faqat "yagona bitta chiziqda"da uchrashi bizga sir emas.. Katta barabanning ovozi anchagina kuchli eshitiladi. Uning tovushini to'p otishlariga yoki momaqaldiroqqa o'xshatishimiz mumkin. Masol uchun baraban ko'magida Lyudvig Van Betxoven 6-simfoniyasida momaqaldiroq ovozini ishlatadi undan tashqari Dimitry Shostakovichning 11-simfoniyasida baraban cholg'usi yordamida to'p o'qlarining otilishini tasvirlab beradi. Ular barabanni yog'och tayoqchalar yordamida asarning mazmunini inobatga olgan holatda ijro qilinadi. Gohida drop(bittalik va ikkitalik) yordamida kuyni mayinlashtirishga gohida esa, kuy qismlariga urg'u berishga, jonlantirib berishga xizmat qiladi. Ularni ikkita maxsus tayoqchalar yordamida ijro qilishadi. Jamoa ijrolar simfonik yoki boshqa damli orkestrlarda odatda ikkita barabandan foydalaniladi – katta baraban va kichik baraban. Biroq jazz orkestri yoki estrada va shunga o'xshash boshqa ansambllarda mazkur ikkitadan tashqari yana baraban to'plamlaridan ham foydalanishadi. Ushbu barabanlar ham boshqalardan deyarli farq qilmaydi. Ularning tanasining ko'rinishi cho'ziqsimon silindrga o'xshab ketadi. Ularning ovozi boshqalaridan anchagina farq qiladi. Baraban to'plamiga yordamchi tariqasida bongilardan ya'ni ikkita kichik barabanlardan foydalaniladi. Biri kichik, boshqasi esa ikkinchisidan biroz kattaroq holatda. Ular ko'rinishi bir juft qilib bir-biri bilan mustahkam qilib bog'langan va ko'p hollarda qo'l kaftlari bilan ijro etiladi. Undan tashqari kongilar ham o'rnatilgan bo'ladi, ularning tana tuzilishi pastga egilgan va terisi ya'ni qoplamasi faqatgina bir tomonga qoplangandir.

Cholg'ular orasida litavra ham simfonik va boshqa tuyrli orkestrlarda zaruriy ishtirokchilardan hisoblanadi. Ushbu cholg'u juda qadimiy o'zining uzoq yillik tarixiga ega bo'lgan musiqa asboblardan hisoblanadi. Ko'plab xalq vakillari uzoq vaqtlardan beri kovaklarilari teri bilan qoplangan ichi bo'sh idishlardan iborat cholg'u asboblari uchratib kelishgan. Ular orqali zamonaviy hozirgi kundagi timpani shakllangan. Mazkur cholg'ularning roli shunchalik kerakki, ayrim dirijyor ijrochilar timpani cholg'usini og'ir va noqulayligiga qaramay xattoki gastrol va konsertlarga ham o'zlari bilan olib borishgan. Timpani cholg'usi katta diapazoniga kuchiga ega: momaqaldiroqqa va boshqa tabiiy hodisalarga taqlid qilishdan tortib, sekin sokin va deyarli sezib bo'lmaydigan gumburlash yoki shitirlashgacha. Ular barabanga nisbatan anchagina murakkab hisoblanadi. Tuzilish jihatidan qozon shaklida bo'lib metall korpusga egadir. Cholg'u korpusi ya'ni tanasi aniq hisoblangan o'lchamlarga bo'linadi va cholg'uning aniq balandlikka erishishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham ijodkor litavralar uchun kerakli asarning notalarini qog'ozga tushirishi mumkin. Tanasi har xil o'lchamlarda bo'lishi mumkin va shuning uchun ham turli balandlikdagi nota tovushlarni eshitamiz. Agar biron bir jamoa ijrolarda uchta litavra bo'lsa, demak bilinki, unda uchta nota tovushi mavjud. Biroq bu holatni asar davomida bir necha marta asar mazmunidan kelib chiqib kerakli tovushga o'zgartirish mumkin.

Zarbli cholg'ular orasida yana bir qiziqarli cholg'ulardan biri bu marimba sozidir. Marimba tuzilish jihatidan ksilofonning bir turi ammo ko'rinishi yoki diapozon jihatdan kattaroq. Uning tuzilishi bir xil hajmdagi yog'och bloklardan iborat va bloklar ostida metall



rezonator quvurlari bilan jihozlangan bo'ladi. Mazkur xolat marimba ovozi yumshoq va mayinroq eshutilishiga sababchi bo'ladi. Marimba cholg'usining vatani Afrikadan boshlanadi ular hozirgi paytda ham mavjud. Biroq vatani bo'lgan afrika xalqida marimba metal jisimli rezonatorlardan iborat emas. Yana shunga o'xshash qiziqarli zarbli asboblaridan biri – Vibrafon cholg'usidir. Chilg'u nomidan ko'rishimiz mumkinki tovushni tebratib beradigan cholg'u. Uning tovush chiqarish manbai yog'och emas, balki metal jismdan tayyorlangan bo'ladi. Har bir mavjud metall bo'laklari ostida marimba cholg'usiga o'xshash rezonator quvurlari bo'ladi. Ushbu naychalarning yuqori ochiq qismini ochish yoki yopib berish uchun aylanadigan qopqoqchalar bilan jihozlangan. Maxsus qopqoqlarning qay darajada harakatlanishi ovoznig ham tebranishiga ta'sir o'tkazadi. Shu qopqoqlarning harakat tezligi qanchalik tez bo'lsa, tovushning tebranish tezligi ham ortadi. Xozirgi kunda vibrafon cholg'ulariga maxsus elektr motorlari bilan jihozlanmoqda. Shuni aytib o'tish joizki ksilofon hamda marimba cholg'ulari bizgacha asrlar davomida kirib kelgan va ommalashgan. Vibrafon cholg'usi esa aksincha juda yangi avlod cholg'ulardan hisoblanadi. Vibrafon Amerikada XX asrning boshlarida yaratilgan cholg'ulardandir.

### References:

1. М.Андреев Основные вопросы начального обучения игре на ударных инструментах. М., 1972.
2. А.Баташев История джазовой музыкальной культуры М.М., 2000.
3. К.Бюхера Работа и ритм М., 1923.
4. Л.Ганиева Эстрадно-инструментальное исполнительство Учебник. Т.: Musiqa, 2019.
5. Э.Денисов Ударные инструменты в современном оркестре. М.:Советский композитор, 1982.
6. А.Панайотов Ударные инструменты в современных оркестрах. М.: Музыка, 1973.
7. А.Измайлов Ощущение времени для исполнителя на ударных инструментах. Т. : Музыка, 2019.
8. Egamkulov, O. (2020). Эстрадно-джазовые произведения и методы их изучения. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(83). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/7233](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7233)
9. Altmishbayevich, E. O., & Altmishevich, E. O. (2022). Problems of instrumental and vocal performers in developing the ability of reading notes from a sheet of paper. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 940-945.
10. Egamkulov, O. (2023). Maktab o'quvchi-yoshlarda nota savodxonligini rivojlantirish va shakllantirishda faoliyat turlari.
11. <https://doi.org/https://doi.org/10.5281/zenodo.7648104>
12. Egamkulov, O. (2023). Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda nota savodxonligini oshirishning asosiy texnologiyalari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7647976>
13. Egamkulov, O. (2021). FORTEPIANODA ETYUD BILAN ISHLASH USULLARI . Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(3). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fl/article/view/917>
14. Эгамкулов, О. А. (2022). РИТМИЧЕСКИЕ ДЖАЗОВЫЕ ФОРМУЛЫ ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА НА УДАРНОЙ УСТАНОВКЕ. Academic research in educational sciences, 3(3), 417-423.



15. Egamkulov, O. (2023). Musiqa darslarida zarbli cholg'u asboblarini o'rganish metodikasi. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(4), 17-19.